X. ISTE’MOL BOZORI

2019 yilning yanvar–dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6768,1 mlrd.so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 112,0% ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 25,9 % ga o‘sib, 1577,4 mlrd.so‘mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 23,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 15,7 % ga o‘sib, 1457,3 mlrd. so‘mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 21,5 % ni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 3733,3 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga to‘g‘ri keldi va o‘sish sur’ati 2018 yilning shu davriga nisbatan 5,8 % ga ko‘paydi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 55,2% ga teng bo‘ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi
(2019 yilning yanvar–dekabr oylarida)

2019 yilning yanvar–dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 1,0 mlrd.so‘mni, Nodavlat mulki 6767,1 mlrd.so‘mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 36,7%, Xazorasp tumani 10,8% hisobiga to‘g‘ri keldi, Shuningdek: Xiva tuman 2,2%, Yangibozor tuman 3,0%, Xiva shahri 4,0% va Qo‘shko‘pir tumani 4,2%, eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

Hududlarningjamichakana tovar aylanmasidagiulushi

% hisobida



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasida o‘sish sur’ati 25,9 % ni tashkil etdi. O‘z navbatida, Xonqa tumanida (2018 yilning shu davriga nisbatan 181,2 % ga), Yangiariq tumani (151,5%ga), Urganch tumani (135,7 %ga) yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 88,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 4,1 % ga o‘sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,3 % ni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri42,0%, Urganch tumani 22,5 %hisobiga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, Yangiariq tumani 1,3 % va Qo‘shko‘pir tumani 1,7 % ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

Chakana tovar aylanmasi

(umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	*2018 yil yanvar-dekabriga nisbatan% da*	*ming so‘m*	*2018yil yanvar-dekabriga nisbatan % da*
Viloyat bo‘yicha jami:	**6768,1**	**112,0**	**3656,1**	**110,2**
Urganch shahar	2485,4	115,5	18239,5	119,5
Xiva shahar	273,7	111,5	2657,5	97,5
tumanlar:				
Bog‘ot	289,3	100,9	1714,7	95,3
Gurlan	557,0	126,8	3676,7	120,9
Qo‘shko‘pir	281,7	103,9	1512,1	93,2
Urganch	614,0	108,4	3062,9	103,8
Xazorasp	728,5	106,4	3034,2	107,0
Xonqa	464,2	114,1	2440,5	108,6
Xiva	171,5	104,6	1060,1	100,0
Shovot	345,0	103,3	2095,9	103,4
Yangiariq	352,0	106,7	3145,7	107,5
Yangibozor	205,8	127,1	2001,2	104,9

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga 12,0 % ga oshib, 3656,1 ming so‘mni tashkil etdi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2894,7 mingso‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarni Urganch shahri (18239,5 ming so‘m), Gurlan tumanida (3676,7 ming so‘m) va Urganch tumanida (3062,9 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichlarni esa Xiva tumanida (1160,1 ming so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida (1512,1ming so‘m), Bog‘ot tumanida (1714,7ming so‘m) qayd etdi.

Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi,%



2019 yilning yanvar–dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1752,9 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 95,8 % ni tashkilqildi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 77,6%ni tashkil qilib, hajmi 606,8 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 9,4 % ga oshib, 1146,2 mlrd. so‘mga etdi va umumiy ulgurji savdo tovaraylanmasidagi ulushi esa 65,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami	*O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da*	*Yirik korxonalar*	*O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da*	*Kichik korxonalar*	*O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da*
Viloyat bo‘yicha jami:	**1752,9**	**95,8**	**606,8**	**77,6**	**1146,2**	**109,4**
Urganch shahar	636,0	111,3	191,2	111,8	444,8	111,0
Xiva shahar	69,6	106,7	1,4	4,4 m.	68,2	105,0
tumanlar:						
Bog‘ot	27,2	113,1	0,01	7,0	27,2	113,6
Gurlan	31,1	108,9	0,03	26,2	31,1	109,2
Qo‘shko‘pir	4,8	111,0	0,01	22,0	4,8	112,4
Urganch	688,1	79,6	411,1	67,6	277,1	107,9
Xazorasp	33,3	108,5	0,02	1,4	33,3	112,9
Xonqa	95,1	117,2	2,8	5,1 m.	92,3	114,5
Xiva	38,0	113,5	0,05	39,1	37,9	113,8
Shovot	43,5	114,6	0,1	59,7	43,4	114,8
Yangiariq	32,0	116,4	0,03	31,8	32,0	116,7
Yangibozor	54,1	90,3	0,01	6,2	54,1	90,5